

XONQA TUMANI TOPONIMLARI

Rajabova Dilnoza Maqsud qizi

Urganch Davlat Universiteti Geografiya yo‘nalishi, 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Xonqa tumani va undagi geografik obyektlarga qo‘yilgan nomlarning kelib chiqish tarixi va ularning ma’no-mazmuni haqida.

Kalit so‘zlar: Xonqa, Darxos, Kantxo, toponimlar, geografik sharoit, masshtab, adres.

TOPONYMS OF KHONKA DISTRICT

Abstract: About the history of the origin of the names in the Khonka district and the geographical objects in it and their meaning.

Key words: Khonka, Darkhos, Kantho, toponyms, geographic conditions, scale, address.

Geografik nomlar-yer-suv nomlari, ya’ni toponimlarni, ularning ma’no-ma’zmuni, kelib chiqishi va tarixini o‘rganishga tobora ko‘p ahamiyat berilmoqda. Har bir toponimda qandaydir ma’no-tarixiy, lisoniy ma’lumot yashiringan. Chunki har qanday geografik nom qandaydir ma’noni anglatadi, afsuski, ko‘pgina hollarda toponimlar hozirgi aholi uchun tushunarsiz bo‘lib qolgan. Aslida, ma’nosiz nom bo‘lmaydi. Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamiyat tarixida bo‘lib o‘tgan xilma-xil voqeal-hodisalar joy nomlarida muxrlanib qolgan. Ko‘pgina geografik nomlar joylarning geografik sharoiti (relyefi, o‘simgilik va hayvonot dunyolari), aholining xo‘jalik faoliyati (mashg‘ulotlari)dan axborot beradi. Hozirgi jamiyatni, zamonaviy svilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Madaniyat va fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan

xalqaro aloqalar tilimizda geografik nomlarni borgan sari ko‘proq ishlatalishni taqozo qiladi. Bu toponimlarning faqat bir jihatni-adreslik funksiyasidir. Yer kurramizda har qanday geografik obyektning o‘z adresi bor. Har bir kishi uchun bu adres tug‘ilib o‘sgan joyidan boshlanadi. Toponimlarning ahamiyati shundangina iborat emas. Bunday deb tushunish geografik nomlar mazmunining qirralarini va xilma-xil axborotlar manbai ekanligini ko‘rsata olmaydi. Geografik nomlar-toponimiya asrlar osha xalq ijodining beba ho mevasidir. Geografik nomlar xilma-xil tarixiy sharoitlar va tillar takomilining mahsulidir. Shuning uchun ham tarixchilar, arxeologlar va etnograflar toponimikaga tobora ko‘proq murojaat qilmoqdalar. Geografik nomlar o‘tmish davrlarda aholining siljishi va ko‘chishi, o‘zaro muloqotlari, el-elatlari yashab o‘tgan hududlari to‘g‘risida tasavvur berishi mumkin. Dunyoda qancha geografik nom borligini hech kim bilmaydi. Maydoni deyarli O‘zbekiston hududiga teng Shvetsiyada 12 milliondan ortiq toponim aniqlangan. Katta-kichik barcha obyektlarning nomlari sinchiklab hisobga olinsa, Respublikamizda ham joy nomlari undan kam emas. Faqatgina shahar va qishloqlarning nomi 13 mingdan oshadi. 1:200000 masshtabTM geografik xaritalaridagi relyef shakllari-toponimlar bilan suv obyektlari nomlari (gidronimlar) soni 10 mingga boradi. Birgina poytaxtimiz Toshkent shahrida 3 mingdan ortiq katta-kichik ko‘cha mavjud. Geografik nomlar qadim zamonlardan paydo bo‘la boshlagan. Vaqt o‘tishi bilan toponimlarning shakl-shamoyili, talaffuz qilinishi ma’lum darajada o‘zgarib ham ketgan. Geografik nomlarning umri har xil bo‘ladi. Xorazm, Samarqand kabi toponimlarning yozma yodgorliklarga qayd qilina boshlaganiga 2 ming yildan oshdi, boshqa bir nomlar, ayniqsa kichik obyektlarning nomlari bir necha o‘n yoldayoq yo‘qolib ketsa-da, lekin kishilar xotirasida, hujjatlarda saqlanib qolishi ham mumkin. Tasodifiy va mazmunsiz nom bo‘lmaydi, shuning uchun ham turli soha olimlari toponimlarni o‘rganishga katta umid bog‘laydilar. Rus olimi N.I.Nadejdin 1837-yoldayoq bunday degan edi: “Toponimika-bu yerning tili, Yer esa kitobki, insoniyat tarixi bu kitobga geografik nomlarda raqam qilinadi”. Toponimikaning qadriga yetgan ba’zi tarixchilar etnogenez muammolarini hal qilishda joy nomlari o‘nlarcha shahar xarobalari va ko‘hna qabristonlarga qaraganda yoki qadimgi

mualliflarning uzuq-yuluq matnlariga nisbatan ishonchliroq ekanini tan oladilar, boshqa bir olimlar “Yer tili” xalqning o‘z tarixi haqida to‘qib-chatib hikoya qilganlaridan ko‘ra ko‘proq ma’lumot bera oladi, deydilar. Toponimik materiallardan ma’lum bo‘lishicha, muayyan hududning toponimiyasi boshqalarning toponimlaridan ham leksik, ham fonetik jihatdan ozmi-ko‘pmi farq qiladi. Bunday hollarda Respublikamiz hududini toponimik jihatdan rayonlashtirish zarurati tug‘iladi. Biroq Respublikamizning ma’muriy-hududiy tuzilishi bu sohada bizning mushkulimizni osonlashtiradi, chunki Respublikamiz subyektlari-har bir viloyat, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiiy sharoiti, Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, etnografiyasi, geografik terminlari, binobarin toponimiyasi jihatidan boshqalardan bir qadar ajralib turadi.

Toponimika fanini o‘rganish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Bu holat dastlab xalqlar va millatlar o‘rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo‘lmasligi bilan ifodalanadi. Chunki barcha tarixiy davrlarda ham geografik nomlar o‘zaro aloqalar uchun ko‘rsatkich sifatida anglashilinadi. Ayniqsa, fan va madaniyat gurkirab rivojlanayotgan bir paytda xalqaro aloqalar tilimizda geografik nomlarning tobora ko‘proq ishlatilishini taqozo etmoqda. Bu jarayon esa o‘z navbatida toponimik atamalardan foydalanish madaniyatini yanada takomillashtirish orqaligina rivojlna oladi. Shu sababli toponimik atamalarni to‘g‘ri nomlash, ularning ma’no-mazmuni, kelib chiqishi, tarixi, geografik tarqalishini o‘rganish davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalar qatoridan o‘rin olgan. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon bu xususda qabul qilingan davlat hujjatlari geografik nomlarni to‘g‘ri qo‘llash uchun katta e’tibor qaratilayotganligidan darak beradi. Bu to‘g‘rida maxsus qonunlar ham mavjuddir. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustda qabul (www.ziyo.com kutubxonasi) qilgan “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi 276-1-sonli Qonuni, geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 4-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2011-yil 26-avgustda ma’qullangan O‘zbekiston Respublikasining Qonuni

mavjud.Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:-geografik obyektlar-Yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'mashgan joy bilan tavsiflanadigan kelib chiqishi;- tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma'muriy -hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shoh ko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, hiyobonlar); transport va muhandislik- texnik infratuzilmasi obyektlari (temir yo'l stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, raz'edlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog' tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar, konlar) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi.Ushbu davlat hujjatlari Respublikamizda toponimik amallardan to'g'ri foydalanish, ularni nodir so'zlar, xalqimizning qimmatli qadriyatlari sifatida muhofaza qilish uchun asos bo'la oladi. Shu bilan birgalikda toponimik atamalardan to'g'ri foydalanish, yuksak madaniyat belgisi sifatida anglashiniladi, toponimik madaniyat shakllanadi.

Joy nomlarining mazmunini anglash bilimi qadimgi davrlardan boshlab ko'pgina olimlarni qiziqtirgan. Jumladan, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Narshaxiy, Mas'udiy, Istaxriy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Xofiz Tanish Buxoriy kabi olimlar o'z asarlarida joy nomlarining ma'mazmunini qiziqarli tarzda oolib berishga muvaffaq bo'lganlar. Ammo, “Toponimika” fan sifatida XIX asrning oxirlari XX asrning boshlaridagina rivojlandi. Ayniqsa, Vatanimiz mustaqillikka erishgach, uni o'rganish yanada rivojlandi. Toponimlar nodir so'z namunalari, qolaversa xalq qadriyatlari sifatida qadrlanib, unitila boshlaganlari esa qayta tiklandi. Ularni ilmiy asosda o'rganishning keng yo'li ochildi.

Har bir shaharning o'z qiyofasi, o'z tarixi va qismati bor. Ma'lum va mashhur shaharlar bilan bir qatorda kichik shaharlar ham mavjudki, ularni ko'pchilik bilmasligi ham mumkin. Har qanday shaharning shon-shuxrati, avvalambor, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Xonqa-shaharcha, Xonqa tumani markazi. Xonqa-“Zikrxona” so‘zidan olingan. Xonqa X asrda Darxos deb atalgan. V.V.Bartold “xonaqo” forscha “xona” so‘zining so‘g‘diylar tilida talaffuz qilinishidir, degan.

Xonqa ko‘hna va hamisha navqiron Xorazmning qadimiy qal’alaridan biri bo‘lgan. U asrlar davomida Quyi Amudaryo mintaqasida voxaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynab kelgan. Tumanning geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi, ya’ni Buyuk Ipak yo‘llari hamda ko‘hna Xorazmning qadimiy poytaxtlari- Qo‘yqirilgan qal’a, Kat va Xiva shaharlariga yaqinligi, iqtidorli va mehnatkash kishilari uning gullab yashnashiga sabab bo‘lgan.

Xorazm tarixini keng va chuqur biladigan S.P.Tolstov, V.V.Bartold, Yaxyo G‘ulomov, Bo‘riboy Axmedov, Axmadali Asqarov kabi olimlarimiz bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlaganlar. Masalan, Akademik Yaxyo G‘ulomov o‘zining “Xorazmning sug‘orilishi tarixi” nomli asarida “Xonqa” atamasi “Xonaqoh” so‘zidan kelib chiqqan va mo‘g‘ullar istilosini davrida vayron etilib, faqat bitta Xonaqoh saqlanib qolgan edi. Bu Xonaqoh atrofida keyinchalik hayot tiklangan va o‘sha vaqtidan boshlab shahar Xon-(a)-qo (Xonqa) deb atalgan”, -deb ko‘rsatadi.

1981-yilda Moskvada nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” nomli ikki jildlik yirik ilmiy asarda “Xonaqoh” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: ”Xonaqoh” –fors-tojik atamasi bo‘lib, masjidning namoz o‘qiydigan keng va katta xonasiga aytildi.

Tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan “Xon(a)qo” so‘zining Xonqa atamasiga aylanib qolishi tabiiy holdir. Lekin masalaga tarixiy nuqtayi nazaridan qaraladigan bo‘lsa va dunyoning turli joylarida Anqa, Xonqa, Qanxa, Kangxa, Safardiz nomi bilan ataluvchi joy nomlarining mavjudligi masalaning ancha munozarali ekanligidan dalolat beradi.

Urganch Davlat Universitetining professori, filologiya fanlari doktori Zarifboy Do‘simov “Xonqa” atamasi masalasiga aniqlik kiritib, bunday deb yozadi: “Xonaqo so‘zining Xonqaga aylanishi hodisasini fonetik jihatdan izohlash qiyin. Chunki “a” harfi so‘z o‘rtasida puxta o‘rnashib qolgan. Umuman turkiy tillarda undoshlar orasidan unli tovush tushishi deyarli uchramaydi. Shunday ekan, Xonqa eron tillariga

xos “Kantxo”-qishloq, mustahkamlangan shahar so‘zi bilan bog‘liq. (Z.Do‘simov. “Xorazm toponimlari”. Toshkent. Fan nashriyoti. 1985,26-bet).

Eramizdan oldingi II asrlarda Kangxa-Xonqa termini tilga olingan. Shuningdek, Xonqada qishloqlarning nomlari ham turli vaqtlargaga borib taqaladi. Tumandagi Qoraqosh, Madir, Tomadurg‘adik, Navxos, Namuna, Sarapayon, Olaja, Qirqyop, Amudaryo qishloqlarining toponimikasi bilan qiziqqanimizda har bir qishloqning nomlanishining o‘zi bir tarix ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Jumladan, Olaja-tumanning qadimiy qishloqlaridan biridir. Xonqa shahridan 10 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloq aholisi azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, kosibchilik bilan shug‘ullangan. Xiva xonligi davrida qishloqda to‘qimachilik yaxshi rivoj topgan. Ko‘pincha olacha-bez to‘qish va undan chopon tikib kiyish rasm bo‘lgan. Xalq orasida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan rivoyatlarga qaraganda, shu qishloqdan olacha chopon kiygan bir paxlavon yetishib chiqqan. Bu paxlavon Xiva xonligiga bo‘lgan dushman xujumlarini daf qilishda juda katta mardlik ko‘rsatgan. Ana shu pahlavonni Xiva xoni “Olajali” deb atagan va katta in’om-ehsonlar hadya qilgan. Shundan olachali atamasi kelib chiqqan va qishloq nomi ham “Olaja” deb ataladigan bo‘lgan. Madir toponimikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Madir qishlog‘i-Xonqa shahrining janubiy chegaralarida joylashgan. Bir vaqtlar qishloq o‘rtasidan Madra-G‘ozibod kanali oqib o‘tgan va unda kemalar qatnab turgan. Aytishlaricha qishloq nomi “Mard el” atamasidan kelib chiqqan. Bir paytlar Xorazmni bosib olayotgan yov shu yerga kelganda, qattiq qarshilikka uchraydi. Qishloq yigitlarining jasoratiga qoyil qolgan bosqinchilar bu o‘lkani mardlar eli ekan deb ta’riflaydilar va qishloq shu nom bilan ataladi. Keyinchalik Madir shaklida talaffuz etiladi.

Hozirgacha nashr etilgan matbuot asarlarida va qo‘lyozmalarda Xonqaning mukammal tarixi, geografik o‘rni, etnografiyasi, ijtimoiy kelib chiqishi to‘la yoritilmagan yoxud yoritilgan bo‘lsada, bizgacha yetib kelmagan. Chet ellik sayyoohlар Istaxriy, Maqsudiy, Ibn Rusta, Chjan Kan, Xerman Vamberi, V.V.Bartold, S.P.Tolstov va boshqalarning yo‘l xotiralarida, o‘zbek olimlari Abul G‘oziy, Ogaxiy, Munis, Bayoniy, Y.G‘ulomov, M.Yo‘ldosheva, A. Fateyev, R.Jumaniyozov,

S.Navro‘zov, A.Sotliqov, N.Qalandarov, o‘lkashunos O‘.Xo‘janiyozovlarning ilmiy-ommabop maqolalari va kitoblarida Xonqa qal'a manzilgohi to‘g‘risida gap boradi. Lekin u bizga Xonqa to‘g‘risida to‘liq ma'lumotlar bera olmaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hali bizning tariximizda, toponimikamizda o‘rganishimiz lozim bo‘lgan taraflari juda ko‘p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.C.П.Толстов, Древний Хорезм. М-Л.1948.
- 2.Do‘simov.Z. Xorazm toponimlari.Toshkent.1985.
- 3.G‘ulomov.Y.G‘.Xorazmnинг sug‘orilish tarixi.-Toshkent:”O‘zbekiston Fanlar akademiyasining nashriyoti”,1959.
- 4.Abdullayev.F. Xorazm shevalari.I tom.1961.
- 5.Бартольд.В.В.Туркестан в епоху монгольского нашествия.-М.,Соч.,т.1.,1963
- 6.www.ziyo.com.